



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

ADAPTIVLIK VA PSIXOLOGIK REGULYATSIYANI REZERVGA BO'SHATILGAN SHAXS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI

Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, kafedra boshlig'i o'rinbosari, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatiga o'tish davridagi adaptivlik va psixologik regulyatsiya ko'rsatkichlarining empirik tahlili yoritilgan. Tadqiqotda harbiy xizmatdan so'ng shaxsda kuzatiladigan psixoemotsional transformatsiya, identitet rekonstruksiyasi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Empirik ma'lumotlar asosida rezervdagi shaxslarning stressga bardoshlilik, emotsional barqarorlik, kognitiv moslashuvchanlik hamda kommunikativ kompetentlik darajalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar aniqlangan.

Kalit so'zlar: rezerv, adaptivlik, psixologik regulyatsiya, psixoemotsional transformatsiya, stressga bardoshlilik, identitet rekonstruksiya, ijtimoiy moslashuv, reintegratsiya, emotsional barqarorlik, kognitiv moslashuvchanlik, kommunikativ kompetentlik, formal muloqot, xulq-atvor, kommunikativlik, o'ziga ishonch, emotsionallik, nostalgiya, begonalashuv.

ВЛИЯНИЕ АДАПТИВНОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ РЕГУЛЯЦИИ НА СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛИЦ, УВОЛЕННЫХ В ЗАПАС

Икматуллаев Гайрат Закирович

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, заместитель заведующего кафедрой, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье представлен эмпирический анализ показателей адаптивности и психологической регуляции военнослужащих, уволенных в запас, в период их перехода в гражданское общество. В исследовании анализируются особенности психоэмоциональной трансформации, реконструкции идентичности и процессов социальной адаптации, наблюдаемых у личности после прохождения военной службы. На основе эмпирических данных выявлены корреляционные связи между уровнями стрессоустойчивости, эмоциональной стабильности, когнитивной гибкости и коммуникативной компетентности лиц, находящихся в запасе.

Ключевые слова: запас, адаптивность, психологическая регуляция, психоэмоциональная трансформация, стрессоустойчивость, реконструкция идентичности, социальная адаптация, реинтеграция, эмоциональная стабильность, когнитивная гибкость, коммуникативная компетентность, формальное общение, поведение, коммуникабельность, уверенность в себе, эмоциональность, ностальгия, отчуждение.

THE INFLUENCE OF ADAPTABILITY AND PSYCHOLOGICAL REGULATION ON THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PERSONS DISCHARGED INTO THE RESERVE

Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Deputy Head of Department, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article presents an empirical analysis of adaptability and psychological regulation indicators among military personnel discharged into the reserve during their transition to civil society. The study analyzes the specific features of psycho-emotional transformation, identity reconstruction, and social adaptation processes observed in individuals after military service. Based on empirical data, correlational relationships were identified between the levels of stress resilience, emotional stability, cognitive flexibility, and communicative competence of individuals in the reserve.

Keywords: reserve, adaptability, psychological regulation, psycho-emotional transformation, stress resilience, identity reconstruction, social adaptation, reintegration, emotional stability, cognitive flexibility, communicative competence, formal communication, behavior, communicativeness, self-confidence, emotionality, nostalgia, alienation.

Rezervga bo'shatilgan shaxslarda adaptivlik va psixologik regulyatsiya muammosi zamonaviy harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda reabilitatsion psixologiya doirasida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida talqin qilinmoqda.

Harbiy xizmatning o'ziga xos submadaniyati, harbiy nizomlar asosidagi munosabatlar va yuqori darajadagi kasbiy mas'uliyat muhitidan fuqarolik jamiyatiga o'tish shaxsning ijtimoiy statusi va rollar tizimida keskin transformatsiyani keltirib chiqaradi. Bu jarayonda subyektning ichki psixofiziologik va kognitiv resurslarini boshqarishga qaratilgan psixologik regulyatsiya mexanizmlari, xususan, emotsional barqarorlik va koping-strategiyalar adaptivlik darajasini belgilab beruvchi determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur muammoning tizimli o'rganilishi nafaqat kasbiy muvofiqlikni saqlab qolgan holda shaxsning yangi ijtimoiy muhit bilan faol aloqasini tiklash, balki rezervdagi harbiylarning oilaviy va kasbiy ijtimoiylashuv jarayonidagi yashirin dezadaptatsiya holatlarini korreksiya qilish hamda ularning ijtimoiy-psixologik himoyasini ta'minlashda muhim amaliy-metodologik ahamiyat kasb etadi.

T.I. Bessonovanning fikriga ko'ra, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning yangi ijtimoiy hayotiy vaziyatga reintegratsiyasi deganda, ilgari ma'lum bo'lmagan ijtimoiy rollarni qabul qilish va o'zlashtirish, o'zini hamda atrof-muhitni idrok etishning o'zgarishi, shaxsning barcha sohalarda – motivatsion, emotsional, kognitiv va xulq-atvor doiralarida transformatsiyalashuvini o'z ichiga oluvchi yangi tuzilmalarning murakkab majmui tushuniladi. Umuman olganda, bu yangi jamoa va guruhdan kelib chiqadigan muayyan me'yor, qoida hamda qadriyatlarni interiorizatsiya qilish (ichki dunyoga singdirish) hamda ushbu ijtimoiy vaziyatlar taqozo etadigan shaxsiy xususiyat va sifatlarini shakllantirish jarayonidir. Moslashuv jarayoniga ham ijtimoiy (xizmat muddati va sharoitlari, fuqarolik hayotining yangi ijtimoiy sharoitlari), ham psixologik (harbiy pensionerning psixologik moslashuviga ko'maklashuvchi yoki to'sqinlik qiluvchi shaxsiy xususiyatlari) kabi turli omillar majmui ta'sir ko'rsatadi [1].

Rezervga bo'shatilgan shaxslarda adaptivlik va psixologik regulyatsiya ko'rsatkichlarini empirik tahlil qilishda mazkur nazariy qarashlarni metodologik asos sifatida qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Z.I. Ryabikina, Ye.R. Mironova, O.A. Lavrovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan olingan xulosalar ham e'tiborga molik. Ularning nazarida, harbiy xizmatning o'ziga xos muhit omillaridan biri – uning qadriyatli, ma'naviy-axloqiy mazmun bilan to'yinganligidir. Harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy xizmat qadriyatlari tizimining qabul qilinishi va baham ko'rilishi kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining markaziy jihati bo'lib xizmat qilsa, ularning rad etilishi esa turli xildagi kasbiy dezadaptatsiyalarning sababi hisoblanadi. Ushbu o'ziga xos muhit ta'sirida shakllanadigan harbiy xizmatchilarning individual-shaxsiy qadriyatlar tizimi ko'p jihatdan o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, boshqa ijtimoiy guruhlar vakillarining qadriyatlar tizimidan farq qiladi [2].

Darhaqiqat, ushbu qayd etilgan o'ziga xoslik harbiy xizmat faoliyatining boshqa sohalardan ajralib turuvchi o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi.

O.A. Lavrovaning ta'kidlashicha, inson hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblangan pensiyaga chiqishda ham o'z ichidagi o'zgarishlarga (organizmning fiziologik qarishi va u bilan bog'liq psixofiziologik jarayonlardagi o'zgarishlarga), ham atrofidagi o'zgarishlarga (o'zgarib borayotgan tashqi ijtimoiy sharoitlarga) moslashishga majbur bo'ladi. Ushbu davrda shaxs oldida o'z yangi ijtimoiy rolini qabul qilish va keyingi hayot yo'lini belgilash vazifalari turadi. Shaxs tomonidan mazkur yoshga doir vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi uning hayotning ushbu bosqichidagi moslashuvi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishini belgilab beradi. Keksa yoshdagi insonlarning yangi ijtimoiy statusga muvaffaqiyatli moslashuvi shaxsning saqlanib qolishi va muhit bilan faol o'zaro ta'sirni yo'lga qo'yishga qaratilgan sifat o'zgarishlarini nazarda tutadi [3].

Ushbu mulohazalar rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasiga oid muammoning ilmiy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

V. Williamson boshchiligidagi olimlar guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar yangi ish joyida fuqaroviy mutaxassislariga qaraganda stress va travmatik ta'sirlarni yuqoriroq darajada boshdan kechirishi aniqlangan. Ushbu davrda ularning oilalari tomonidan istalgan psixologik qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlarning ortganligi ko'rsatib berilgan. Mazkur qo'llab-quvvatlash ularning yakuniy natijada qiyinchiliklarni yengib o'tish (koping) qobiliyatini yaxshilashi mumkinligi isbotlangan [4].

Xorijiy tadqiqotlarda mazkur jarayon asosan harbiy xizmatdan fuqaroviy hayotga o'tish davrida

yuzaga keladigan psixoemotsional transformatsiyalar, stressga bardoshlilik, identitet rekonstruksiyasi, ijtimoiy moslashuv hamda o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining qayta shakllanishi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tadqiqotchilar reintegratsiya jarayonini oddiy ijtimoiy moslashuv emas, balki shaxsning butun regulativ tizimini qayta tashkil etuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida izohlaydilar.

Xususan, Amerika va Yevropa harbiy psixologiya maktablarida olib borilgan tadqiqotlarda rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptivligi ko'p komponentli tizim sifatida talqin qilinadi. Mazkur tizim tarkibiga emotsional barqarorlik, kognitiv moslashuvchanlik, kommunikativ kompetentlik, refleksivlik hamda xulq-atvor regulatsiyasi kabi komponentlar kiritiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, harbiy xizmat davomida shakllangan yuqori intizomiy nazorat va qat'iy reglamentlangan faoliyat fuqaroviy hayot sharoitida har doim ham samarali adaptiv strategiya sifatida namoyon bo'lavermaydi. Chunki fuqaroviy ijtimoiy muhit nisbatan moslashuvchan, noaniq va ko'p variantli xulq-atvor modellarini talab qiladi. Shu sababli, rezervga bo'shatilgan shaxslar yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtirishda ma'lum psixologik ziddiyatlarni boshdan kechiradi.

1-jadval

Adaptivlik (MLO) metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	St.og'ish	Z qiymat	p (ishonchlik darajasi)
Ishonchlik darajasi	7,38	2,77	3,03	0,000**
Xulq-atvorni boshqarish	61,05	20,81	3,07	0,000**
Kommunikativ potensial	17,30	4,15	1,79	0,003**
Axloqiy me'yoriylik	16,83	3,72	2,35	0,000**
Shaxsning moslashuvchanlik potentsiali	64,88	19,15	2,82	0,000**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$.

Adaptivlik (MLO) metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, ishonchlik darajasi (7,38), xulq-atvorni boshqarish (61,05), kommunikativ potensial (17,30), axloqiy me'yoriylik (16,83) hamda shaxsning moslashuvchanlik potentsiali (64,88) ko'rsatkichlaridan o'rtacha qiymatlar solishtirilganda xulq-atvorni boshqarish hamda shaxsning moslashuvchanlik potentsiali shkalalarida ustuvorlik qayd etildi. Metodikaning interpretatsion tahliliga ko'ra, xulq-atvorni boshqarish hamda shaxsning moslashuvchanlik potentsiali rezervga bo'shatilgan shaxslarda moslashuvchanlik hamda o'zini nazorat qilish makon va zamon omillari ta'sirida o'rta darajada namoyon bo'lar ekan. Avvalo, metodikaning ishonchlik darajasi (7,38) ko'rsatkichi olingan natijalarning ichki izchilligi va psixometrik barqarorligini tasdiqlaydi. Ushbu qiymat metodika orqali o'lchanayotgan konstruktarning (adaptivlik komponentlari) empirik jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda bunday ishonchlik darajasi natijalarni interpretatsiya qilishda ilmiy asoslanganlikni ta'minlaydi hamda keyingi tahlillar uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo'yicha o'rtacha qiymatning 61,05 ni tashkil etishi rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, impulslarni boshqarish va vaziyatga mos ravishda adekvat reaksiyalarni shakllantirish qobiliyati nisbatan rivojlanganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur ko'rsatkichning o'rta darajada namoyon bo'lishi shuni anglatadiki, harbiy muhitda shakllangan qat'iy intizomiy xulq-atvor modeli fuqaroviy hayot sharoitida to'liq transformatsiyalashmagan. Ya'ni, shaxslar ayrim vaziyatlarda o'zini nazorat qilishda samarali bo'lsa-da, erkin va kam reglamentlangan ijtimoiy muhitda xulq-atvorni moslashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Kommunikativ potensial (17,30) ko'rsatkichining o'rtacha darajada bo'lishi shaxslarning ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyati, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, ularning maksimal darajada rivojlanmaganligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat harbiy muhitga xos bo'lgan ierarxik va formal muloqot uslubining fuqaroviy jamiyatdagi gorizont va erkin kommunikativ tizimga to'liq moslashmaganligi bilan izohlanadi. Natijada, shaxslar muloqotda ma'lum darajada samarali bo'lsalar-da, ochiqlik, tashabbuskorlik va emotsional ifodaning yetarli darajada namoyon bo'lmasligi kuzatilishi mumkin.

Axloqiy me'yoriylik (16,83) ko'rsatkichining o'rtacha darajada bo'lishi rezervdagi shaxslarda ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar tizimini qabul qilish hamda ularga amal qilish darajasi yetarli ekanligini ko'rsatadi. Biroq bu ko'rsatkichning yuqori emasligi shuni anglatadiki, harbiy muhitda shakllangan qat'iy normativ tizim fuqaroviy jamiyatdagi nisbatan fleksibil va kontekstual axloqiy me'yorlarga to'liq

integratsiyalashmagan. Bu esa ayrim hollarda normativ noaniqlik, ya'ni qaysi vaziyatda qanday xulq-atvor modelini tanlash masalasida ichki ikkilanishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shaxsning moslashuvchanlik potentsiali (64,88) ko'rsatkichining nisbatan yuqori qiymatga ega bo'lishi tadqiqot ishtirokchilarida umumiy adaptiv resurslar yetarli darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich shaxsning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish, stress omillariga bardosh berish va hayotiy vaziyatlarga adekvat javob qaytarish qobiliyatining integrativ ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning maksimal darajaga yetmaganligi reintegratsiya jarayonining hali to'liq yakunlanmaganligini va adaptivlikning dinamik rivojlanish bosqichida ekanligini bildiradi.

Xulq-atvorni boshqarish va moslashuvchanlik potentsiali shkalalarining ustuvorligi rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda adaptiv resurslarning asosiy komponentlari aynan o'zini nazorat qilish va umumiy moslashuv qobiliyatiga tayanishini tasdiqlaydi. Biroq kommunikativ potentsial va axloqiy me'yoriylik ko'rsatkichlarining nisbatan pastroq darajada bo'lishi reintegratsiya jarayonida aynan ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar transformatsiyasi bilan bog'liq muammolar ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Rezervga bo'shatilgan shaxslarning adaptivligi kompleks, ammo notekis rivojlangan tizim bo'lib, unda intrapersonal resurslar (o'zini nazorat qilish, psixologik barqarorlik) nisbatan yuqori, interpersonal va ijtimoiy komponentlar esa nisbatan sust rivojlangan.

Adaptivlik (MLO) metodikasining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko'ra, ishonchlilik darajasi ($Z=3,03$; $p<0,01$), xulq-atvorni boshqarish ($Z=3,07$; $p<0,01$), kommunikativ potentsial ($Z=1,79$; $p<0,01$), axloqiy me'yoriylik ($Z=2,35$; $p<0,01$) hamda shaxsning moslashuvchanlik potentsiali ($Z=2,82$; $p<0,01$) ko'rsatkichlarining barchasi noparametrik mezonlarga muvofiq holda tahlil qilinishi aniqlandi. Metodikadan o'rin olgan shkalalarning Z qiymatlari solishtirilganda esa, eng yuqori og'ish xulq-atvorni boshqarish shkalasida ($Z=3,07$; $p<0,01$) kuzatilgan. Bu holat rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda o'z xulq-atvorini nazorat qilish darajasi bo'yicha sezilarli individual tafovutlar mavjudligini anglatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, ushbu natija shaxslarning bir qismi yuqori darajadagi o'zini boshqarish kompetensiyasini saqlab qolgan bo'lsa, boshqa qismida esa fuqaroviy muhitga o'tish jarayonida xulq-atvorni regulyatsiya qilish mexanizmlarida muayyan disbalans yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Bu esa harbiy muhitda shakllangan qat'iy intizomiy nazorat tizimining fuqaroviy sharoitlarda differensial tarzda transformatsiyalanayotganini tasdiqlaydi.

Ishonchlilik darajasi bo'yicha natija ham yuqori og'ishlarni aks ettirib, metodika orqali o'lchanayotgan psixologik xususiyatlarning tanlanma doirasida bir xil darajada namoyon bo'lmayotganligini ko'rsatadi. Bu holat respondentlarning psixologik holati va adaptiv resurslarining geterogen xarakterga ega ekanligini, ya'ni reintegratsiya jarayoni turli darajada kechayotganini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shaxsning moslashuvchanlik potentsiali shkalasi bo'yicha natija ham normallikdan sezilarli og'ishni ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich adaptivlikning integral komponenti sifatida qaralganda, shaxslarning umumiy moslashuv darajasi bo'yicha farqlar mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat ayrim respondentlar yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan bo'lsa, boshqalari esa hali adaptiv jarayonning murakkab bosqichida ekanligini ko'rsatadi.

Axloqiy me'yoriylik shkalasida aniqlangan qiymat normativ tizimni qabul qilish va unga amal qilish darajasi ham respondentlar o'rtasida bir xil emasligini anglatadi. Bu holat harbiy muhitda shakllangan qat'iy normativ qadriyatlar tizimi bilan fuqaroviy jamiyatdagi nisbatan fleksibil axloqiy me'yorlar o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Natijada ayrim shaxslarda normativ adaptatsiya tez kechsa, boshqalarida esa bu jarayon murakkab va ziddiyatli xarakter kasb etadi. Eng past Z qiymati kommunikativ potentsial shkalasida ($Z=1,79$; $p<0,01$) qayd etilgan bo'lsa-da, u ham statistik jihatdan ahamiyatli og'ishni bildiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichlari nisbatan barqarorroq taqsimlangan bo'lsa-da, baribir normallikdan chetga chiqishini ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu natija shuni anglatadiki, kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha farqlar mavjud bo'lsa-da, ular boshqa komponentlarga nisbatan kamroq dispersiyaga ega.

Umuman olganda, barcha shkalalar bo'yicha Z qiymatlarining statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi adaptivlik komponentlarining tanlanma doirasida normal taqsimlanmaganligini va respondentlar o'rtasida sezilarli individual farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonining universal emas, balki differensial xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptivlik darajasi komponentlar kesimida notekis taqsimlangan bo'lib, ayniqsa xulq-atvorni boshqarish va umumiy moslashuvchanlik potentsiali bo'yicha tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi.

2-jadval

Adaptatsiya darajasi diagnostikasi metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga

mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	St.og'ish	Z qiymat	p (ishonchlilik darajasi)
Kommunikativlik	34,11	10,17	2,35	0,000**
O'ziga ishonch	46,62	9,05	1,91	0,001**
Emotsionallik	33,16	9,62	4,47	0,000**
Nostalgiya	27,26	7,23	4,27	0,000**
Begonalashuv	33,33	9,36	2,77	0,000**
Adaptatsiya	31,34	7,72	4,07	0,000**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$.

Adaptatsiya darajasi diagnostikasi metodikasining tavsiflovchi qiymatlari tahliliga ko'ra, kommunikativlik (34,11), o'ziga ishonch (46,62), emotsionallik (33,16), nostalgiya (27,26), begonalashuv (33,33), adaptatsiya (31,34) kabi shkalalar orasida eng yuqori o'rtacha qiymat ko'rsatkichi o'ziga ishonch shkalasida qayd etildi. Bu natija rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda jamiyatga reintegratsiyalashuv jarayonida xavotirlarning yuksak darajada namoyon bo'lmayotganligini, oila va o'zining ichki salohiyatini real baholagan holda kelajak uchun tavakkal asosida qadam tashlashi mumkinligidan dalolat beradi. Avvalo, o'ziga ishonch ko'rsatkichining yuqori darajada namoyon bo'lishi rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda adekvat "Men-konsepsiya", o'z imkoniyatlarini real baholash va kelajak faoliyatiga nisbatan ijobiy kognitiv yo'nalganlik shakllanganligini anglatadi. Reintegratsiya jarayonida xavotir darajasining keskin emasligi shaxsning yangi ijtimoiy muhitga nisbatan konstruktiv munosabatda ekanligi bilan izohlanadi. Ya'ni, respondentlar o'z hayotiy strategiyalarini ongli ravishda belgilash, qaror qabul qilish va tavakkal elementlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish salohiyatiga ega.

Kommunikativlik ko'rsatkichining (34,11) o'rtacha darajada bo'lishi shaxslarning muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatlari yetarli ekanligini, biroq maksimal darajada rivojlanmaganligini bildiradi. Bu natija harbiy muhitga xos bo'lgan formal va ierarxik muloqot modelining fuqaroviy jamiyatdagi ochiq va moslashuvchan kommunikativ tizimga to'liq moslashmaganligini ko'rsatadi. Natijada shaxslar ijtimoiy aloqalarda faol bo'lsalar-da, ayrim vaziyatlarda kommunikativ to'siqlarga duch kelishi mumkin.

Emotsionallik (33,16) ko'rsatkichining o'rtacha darajada bo'lishi respondentlarning emotsional reaksiyalari muvozanatlashganligini bildiradi. Bu shaxslar hissiy jihatdan haddan tashqari impulsiv emas, biroq emotsiyalarni to'liq bostirmaydi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat adaptiv xususiyatga ega bo'lib, stressli vaziyatlarda emotsional nazorat va vaziyatga adekvat javob berish imkonini yaratadi. Nostalgiya ko'rsatkichining (27,26) nisbatan pastroq darajada bo'lishi harbiy xizmat davriga haddan tashqari psixologik bog'lanish mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonida muhim ijobiy omil hisoblanadi, chunki o'tmishga ortiqcha qaytish tendensiyasining pastligi shaxsning yangi ijtimoiy muhitga yo'naltirilganligini anglatadi. Biroq, nostalgiya elementlarining mavjudligi harbiy identitetning to'liq yo'qolmaganligini, balki transformatsiya jarayonida ekanligini bildiradi.

Begonalashuv (33,33) ko'rsatkichining o'rtacha darajada bo'lishi shaxslarda ijtimoiy muhitga nisbatan to'liq integratsiya hali yakunlanmaganligini ko'rsatadi. Ya'ni, ayrim respondentlar o'zini jamiyatdan qisman ajratilgan his qilishi mumkin. Bu holat reintegratsiya jarayonining murakkab bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinadi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umumiy adaptatsiya ko'rsatkichi (31,34) esa shaxslarning fuqaroviy hayotga moslashuvi o'rtacha darajada ekanligini bildiradi. Bu natija adaptiv jarayonning yakunlanmaganligini, biroq ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'ziga ishonch shkalasining ustuvorligi rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda ichki psixologik resurslar, xususan, o'ziga ishonch va o'zini anglash darajasi reintegratsiya jarayonida asosiy tayanch omil bo'lib xizmat qilayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kommunikativlik, begonalashuv va umumiy adaptatsiya ko'rsatkichlarining o'rtacha darajada bo'lishi ijtimoiy integratsiya jarayoni hali to'liq yakunlanmaganligini bildiradi.

Adaptatsiya darajasi diagnostikasi metodikasining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga muvofiq, kommunikativlik ($Z=2,35$; $p < 0,01$), o'ziga ishonch ($Z=1,91$; $p < 0,01$), emotsionallik ($Z=4,47$; $p < 0,01$), nostalgiya ($Z=4,27$; $p < 0,01$), begonalashuv ($Z=2,77$; $p < 0,01$), adaptatsiya ($Z=4,07$; $p < 0,01$) kabi shkalalarning barchasi noparametrik mezonlarga muvofiq holda tahlil qilinishi oydinlashdi. Z qiymatlarining solishtirma tahliliga ko'ra, eng yuqori og'ish emotsionallik shkalasida ($Z=4,47$; $p < 0,01$)

qayd etilgan. Ushbu natija rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarda emotsional reaksiyalar, hissiy barqarorlik va affektiv javoblar darajasi bo'yicha keskin individual tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat reintegratsiya jarayonining emotsional komponenti eng o'zgaruvchan va sezgir ekanligini bildiradi: ayrim shaxslar yuqori emotsional barqarorlikni saqlab qolgan bo'lsa, boshqalarda esa hissiy zo'riqish, beqarorlik yoki affektiv reaksiyalarning kuchayishi kuzatiladi.

Nostalgiya shkalasida aniqlangan yuqori Z qiymati ($Z=4,27$; $p<0,01$) ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu natija harbiy xizmat davriga bo'lgan psixologik bog'liqlik darajasi respondentlar o'rtasida keskin farqlanishini ko'rsatadi. Ba'zi shaxslar o'tmish tajribasidan psixologik jihatdan ajralib chiqqan bo'lsa, boshqalarda esa nostalgik kechinmalar kuchli saqlanib qolgan. Bu esa reintegratsiya jarayonida identitet transformatsiyasi notekis kechayotganini anglatadi. Umumiy adaptatsiya shkalasi bo'yicha natija shaxslarning fuqaroviy hayotga moslashuv darajasi ham yuqori dispersiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat reintegratsiya jarayonining differensial xarakterga ega ekanligini, ya'ni ayrim respondentlar muvaffaqiyatli integratsiyalashgan bo'lsa, boshqalari esa hali moslashuvning murakkab bosqichida ekanligini tasdiqlaydi.

Begonalashuv shkalasida qayd etilgan qiymat ijtimoiy muhitga nisbatan subyektiv ajralish hissi ham respondentlar o'rtasida bir xil darajada emasligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat ayrim shaxslarning jamiyat bilan integratsiyalashuv darajasi pastligi, ijtimoiy izolyatsiya yoki kommunikativ to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi. Kommunikativlik shkalasidagi natija kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichlari ham normallikdan og'ishini tasdiqlaydi. Bu shaxslarning muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash darajasi bo'yicha farqlar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, bu og'ish darajasi emotsionallik va nostalgiya shkalalariga nisbatan pastroq bo'lib, kommunikativ ko'nikmalar nisbatan barqarorroq komponent ekanligini ko'rsatadi.

Eng past Z qiymati o'ziga ishonch shkalasida ($Z=1,91$; $p<0,01$) qayd etilgan bo'lsa-da, u ham statistik jihatdan ahamiyatli og'ishni bildiradi. Bu natija shuni anglatadiki, o'ziga ishonch darajasi boshqa komponentlarga nisbatan barqarorroq taqsimlangan bo'lsa-da, u ham to'liq normal taqsimlanishga ega emas. Mazkur holat rezervga bo'shatilgan shaxslarda o'ziga ishonch umumiy tendensiya sifatida mavjud bo'lsa-da, individual darajada farqlar saqlanib qolayotganini bildiradi.

Umuman olganda, barcha shkalalar bo'yicha qiymatlarning statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi adaptatsiya komponentlarining tanlanma doirasida normal taqsimlanmaganligini va respondentlar o'rtasida sezilarli individual tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonining universal emas, balki ko'p omilli, dinamik va differensial xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Adaptatsiya jarayonida ayniqsa emotsional (emotsionallik, nostalgiya) va umumiy moslashuv komponentlari eng o'zgaruvchan bo'lib, ular reintegratsiyaning muhim «zaif nuqtalari» sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бессонова Т.И. Психологическая адаптация военных пенсионеров к новым видам деятельности // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. – 2023. – № 2 (66). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-adaptatsiya-voennyh-pensionerov-k-novym-vidam-deyatelnosti>
2. Рябикина З.И., Миронова Е.Р., Лаврова О.А. Психологический статус личности военных пенсионеров // Российский психологический журнал. – 2025. – Т. 22, № 3. – URL: <https://rpj.ru.com/index.php/rpj/article/view/1950/2121>
3. Лаврова О.А. Характеристики эмоциональной сферы военных пенсионеров как детерминанты их адаптационной готовности к изменениям в социальном статусе // Южно-российский журнал социальных наук. – 2020. – Т. 21, № 2. – С. 111–125.
4. Williamson V., Harwood H., Greenberg K., Stevelink S.A.M., Greenberg N. The Impact of Military Service on the Mental Health of Older UK Veterans: A Qualitative Study // International Journal of Geriatric Psychiatry. – 2019. – Vol. 34, No. 10. – P. 1412–1420. – DOI: 10.1002/gps.5131. – PMID: 31034673. – URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31034673/>